

TAFSIR QILISH VA UNING TURLARI

A.Oxunjonov

Osiyo Xalqaro Universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola tafsir ilmi va uning paydo bo‘lishi, shakllanishi, uning lug‘aviy va istilohiy ma‘nolari, Payg‘ambar (s.a.v) davrlarida paydo bo‘lishi va sharhanishi va sahobalar davrida uning rivoyat qilinishi va ma‘boshqa ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Tafsir, ta‘vil, Muhammad (s.a.v), saholabalar, tobe’inlarlar, Qur’oni Karim, Hadislar, hukmlar, sharhlar.

Tafir qilish turlarini ikkita asosiy qismga bo’lsa bo’ladi; asos jihatidan tafsir qilish turlari, uslub jihatidan tafsir qilish turlari.¹

Asos jihatidan tafsir qilish turlari quyidagilar;

Birinchi qism: “الْتَّفَسِيرُ بِالْمَأْثُورِ” “Tafsir bil ma’sur”. “Ma’sur” so’zi xabar, naql degan ma’nolarni anglatadi. Shunday ekan, bu qismni “xabar, naql va dalillar bilan tafsir qilish” deb nomlash mumkin. Mufassir bu uslubda Qur’oni karim oyatlari, hadislar, sahobalarning so’zlarini tafsir qilish asosi qilib oladi. Ba’zi ulamolar bu asoslarga tabe’inlarning so’zlarini ham qo’shganlar². Bu uslubda yozilgan tafsir kitoblarga “Tafsir ibn Kasir” Qur’oni Karim oyatlarini rivoyat qilgan sahif hadislar va sahobalarning qavllari bilan tafsir qiladi. Bu uslubda yozilgan tafsirlarning mashhurlari quyidagilardir:

- Muhammad ibn Jarir Tabariyning “Jomi’ul bayon fi tafsiril Qur’on”
- Abu Muhammad Husayn ibn Mas’ud ibn Muhammad Bag‘aviyning “Ma’olimut tanzil”
- Imoduddin Ismoil ibn Kasirning “Tafsirul Qur’onil Aziym”
- Jololiddin Suyutiyning “Ad-Durrul mansur fit-tafsiri bil ma’sur”

Yuqorida tafsirning bu turi ham bir necha qismlarga bo’linishini keltirib o’tildi. Shularning tafsilotiga to’xtalamiz.

-Qur’on oyatini Qur’on oyati bilan tafsir qilish. Gohida ba’zi oyatlarda ko’zlangan maqsad ravshan bayon qilinmagan bo’ladi. Lekin ayni shu oyatning ma’nosini boshqa oyatda mufassal bayon qilingan bo’ladi. Bunga misol qilib Alloh taolonning quyidagi kalomini misol qilib keltiriladi:

(بِاَيْهَا الَّذِينَ آمَنُوا اُوْفُوا بِالْعُهُودِ اُجْلِّثُ لَكُمْ بَيْمَةً الْأَنْعَامِ إِلَّا مَا يُنْهِي عَلَيْكُمْ)³

“Ey iymon keltirganlar! Ahdonmalarga vafo qiling! Sizga keyin tilovat qilinadiganlaridan boshqa chorva hayvonlari halol qilindi”.⁴

Boshqa oyatda Alloh taolonning “Sizga keyin tilovat qilinadiganlaridan” so’zini o’zining:

حَرَمَتْ عَلَيْكُمُ الْمَيْتَةُ وَالدَّمُ وَلَحْمُ الْخِنْزِيرِ وَمَا أَهْلَ لِغَيْرِ اللَّهِ بِهِ وَالْمُنْخَنِقَةُ وَالْمُؤْقُوذَةُ وَالْمُتَرَبَّيَةُ وَالنَّطِيحَةُ وَمَا أَكَلَ السَّبُعُ إِلَّا مَا دَكَّيْتُمْ وَمَا دُبِّحَ عَلَى النَّصْبِ

¹ انواع التفسير القرآن <https://mawdoo3.com/>

² Muhammad Hasan. Al-manar fi ulumil-Qur’on: -Bayrut. “Mu’assisatur risala” (2000) 260 B.

³ Moida surasi; 1-oyat.

⁴ Shayx Muhammadsodiq Muhammadyusuf. Tafsir al-hilol: -Toshkent. “Hilol nashr. (2022) 565 B.

“Sizlarga o‘limtik, qon, cho‘chqa go‘shti, Allohdan boshqaning nomi ila so‘yilgan, bo‘g‘ilib o‘lgan, urib o‘ldirilgan, yiqilib o‘lgan, suzib o‘ldirilgan, yirtqich yegan hayvonlar harom qilindi”⁵.⁶

Bu qism ham ba’zi jihatlardan to’rt qismga bo’linadi.

- Qur’oni karim oyatdagi hukmni Qur’oni karim oyati bilan nasx (hukmni yangilash) qilish.
- Umumiy ma’noga dalolat qiladigan oyatni boshqa oyat bilan xoslash.
- Mutlaq ma’noni bayon qiladigan oyatni boshqa oyat bilan qaydash.
- Ma’nosи ravshan qilinmagan oyatni boshqa oyat bilan ravshan qilish.
- “tafsir bil ma’sur” ning ikkinchi qismi Qur’on oyatlarni nabaviy hadislar bilan tafsir qilish. Bu tafsir turning boshlanishi rosulullohning sahabalarga oyatlarni tafsir qilishlari bilan yoki oyatlar ma’nosini tushinishga mushkillik bo‘lgan paytda ma’nosini bayon qilish bilan yoki oyatlarni ta’vil qilish bilan bo‘lgan.⁷ Bunga misol qilib Allah taolonning “الَّذِينَ يَأْكُلُونَ الرِّزْبَا” “Ribo yeydiganlar....” So’zini Rosululloh sollallohu alayhi vasallam: “Tillo tillo bilan, kumush kumush bilan, bug’doy bug’doy bilan, arpa arpa bilan, xurmo xurmo bilan, tuz tuz bilan tengma teng qo’lma qo’l almashtiriladi. Ortiqchasi ribo bo’ladi, oluvchi ham beruvchi ham tengdir” -dedilar.
- Sahoba va tobeinlarning so’zları bilan Qur’onni tafsir qilish. Sahobalarning islomda katta o’rinlari bor. Bu hech kimga maxfiy emas. Ularning rosululloh sollallohu alayhi vasallam bilan birga hamroh bo’lishlari ularga sharaf va ulug’lik jihatidan kifoya qiladi. Shuning uchun, ularning aytgan so’zları hujjat hisoblandi. Mufassirlar ularning so’zlarini hujjat hisoblashadi. Ular arab tili egalari hisoblanadi. Qur’on oyatining maqsadini bilishadi. Qur’oni karim ularning zamonlarida nozil bo’lgani uchun oyatlar kim haqida nima haqida nozil bo’lganini bilishadi.⁸

Ikkinchi qism : “Tafsir bir-roy” “Ijtihad bilan tafsir qilish”. Bu qismda mufassir o‘z fikri va ijтиҳодиila tafsir qiladi. Bu ham aslida dalilga suyanilgan holatda bo’ladi. Shuni bilish lozimki, ijтиҳod bilan tafsir qilish eshigi barcha uchun ochiq emas. Ijtihad bilan tafsir qilish uchun mufassirlarga bir necha shartlar qo’yiladi. Bu shartlar mufassirning sifatlariga, manhaj-uslubiga bog’liq bo’ladi. Mufassirning sifatlariga bog’liq sifatlar:

- Sog’lom aqida va tog’ri fikrlash;
- Bu amalda niyatni xolis qilish;
- Qur’oni karimga amal qilish va tadabbur qilish;
- Qur’on va tafsirga bog’liq ilmlarni mukammal egallah;
- Qiroatlar, nosiz va mansux oyatlarni, nozil bo’lish sabablarni egallah;
- Arab tilini mukammal egallah;

Mufassir manhajiga bog’liq shartlar:

⁵ Shayx Muhammadsodiq Muhammadyusuf. Tafsir al-hilol: -Toshkent. “Hilol nashr. (2022) 570 B.

⁶ Muhammad Abu shahba, Al-isroiliyyot valmavzuot fi kutub at-tafsir. –Qohira. “dar kutub sunna” 44-45 B.

⁷ Musaid at-Tayyor, “Fusulun fi usulut tafsir” -as-Saudiyya. “Dar ibn Javziy” 72 B.

⁸ Musaid at-Tayyor, “Fusulun fi usulut tafsir” -as-Saudiyya. “Dar ibn Javziy” 47-48 B.

- Sahih shar’iy naqlarga suyanish;
- Hadis va sahoba va tobeinlardan kelgan naqlarni lug’at taqozosidan oldin qo'yish;
- E'rob ko'rinishlari ko'p bo'lgan lafzlarga sahih xabarlargaga mos bo'lgan ko'rinishni ixtiyor qilish;
- Nafs xohishi, mutaassiblikdan saqlanish;

Isroiliyyot xabarlaridan, Qur'on va sunnatga teskari keladigan falsafiy qarashlardan saqlanish; Ijtihad bilan tafsir qilingan tafsir kitoblaridan:

- Abu Abdulloh Muhammad ibn Umar ibn Husayn Faxriddin Roziyning “Mafotihul g‘ayb”
- Nasriddin Abdulloh ibn Umar ibn Muhammad ibn Ali Bayzoviyning “Anvorut-tanzil va asrorut-ta‘vil”
- Abul Barakot Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud Nasafiyning “Madorikut-tanzil va haqoiquyt ta‘vil” kitoblari.
-

Uchunchi qism “Attafsir Allug’oviy” (Lug’at ma’nosiga suyanib tafsir qilish).

“Attfasir Allug’oviy” – Qur’ondagi oyatlarning ma’nolarini arab tilida ma’nosiga ko’ra bayon qilishdir. Chunki, Qur’oni karim arablarning lafzlari va uslublari bilan nozil bo’lgan. To’rtinchchi qism: “Tafsiri ishoriy”. Bu qismda mufassir oyatning zohiriy ma’nosiga qaramay, uning maxfiy ishoralarini taqozasi bilan tafsir qiladi. Bu faqat suluk va tasavvuf arboblarining uslubidir. lekin, bu uslubda tafsir qilishda lug’at taqozo qilgan ma’nolarga va boshqa shar’iy dalillarga qarshi chiqmasligi lozimdir. Bunday tafsir qilingan oyatlarga misol qilib Allah taolonining:

(إذْهَبْ إِلَى فِرْعَوْنَ إِنَّهُ طَغَى) kalomini misol qilish mumkin. Chunki, bu oyatning zohiriy ma’nosiga “Ey Muso, Fir’avn oldiga bor, chunki, u isyon qildi.” Bu yerda “Fir’avn” barchaga ma’lum Misr podshoxi. Bu oyatni Ishoriy tafsir kitoblarida “tug’yon qiluvchi nafs” deb tafsir qilganlar.⁹ Bu qismga doir tafsirlar:

- Nizomiddin Hasan ibn Muhammad Husayn Xurosoniy Naysoburiyning “G‘aroibul Qur'on va rag'oibul Furqon”
- Sheroziyning “Aroisul bayon fiy haqoqil Qur'on” kitoblari.

Beshinchchi qism “Tafsiru ayat al-ahkam” (Hukmiy oyatlarning tafsiri). Bu tafsir turi fiqhiy hukmga doir bo’lgan oyatlarning tafsiri borasida bo’ladi. Rosululloh sollallohu alayhi vasallam asosiy e’tiborlarini hukmiy va aqidaviy oyatlarni bayon qilib berishga qaratganlar. Chunki, Qur’onnинг aksar oyatlari yoki insonning e’tiqodiga yoki uning zohiriy amallariga bog’liqdir. Shar’iy hukmlarni bayon qilishda Qur'on va sunnat asosiy manba ekanini ta’kidlab o’tish lozimdir. Lekin Qur'on oyatlarida shar’iy hukmlarning dalillari gohida qat’iy (uzul kesil ma’noni bildirgan) bo’imasligi mumkin. Gohida nabaviy hadislar ham qat’iy ma’noni bildirmaydi. Shu o’rinda fuqaholarimizning hukm oyatlariga bergen tafsirlari va ijtihoglari katta o’rin egallaydi. Ular shar’iy hukmga doir oyatlarni tafsir qiladilar.¹⁰

Uslub jihatidan tafsir qilish turlari.

⁹ Mustafo al-Bug'o. Al-Vazih fi ulumil Qur'an. –Dimashq. "DArul ulumul islamiyya" 239-240 B.

¹⁰ Fahd ar-Rumiyy. Ittijohatuttafsir fil qornir robi' ashar. –As-Saudiyya. "Ri'asat idorat buhus alislamiyya" 415-416 B.

Uslub jihatidan tafsir qilish turlari to'rt qismga bo'linadi¹¹.

Birinchi qism: "Attafsir al'ijmaliy" (qisqacha tafsir). Bu tafsir turi Qur'oni karim oyatlari qisqa shaklda qo'shimcha tafsilotlarga kirishilmasdan bayon qilishdir. Odatan bunday uslubdagi tafsirlarning hajmi Qur'oni karim hajmining uch barobari bo'ladi. Bu qismga doir tafsirlar:

- Jaloliddin Mahalliy va Jaloliddin Suyutiyning "Tafsir al-jalolayn".
- Muhammad aliy As-Sobuniyning "At-Tafsir Al-vazih al-Muyassar".

Ikkinci qism: "Attafsir attafsiliy vat tahliliy". (keng tafsir qilish) bu turda mufassir oyatlarni kengroq tafsir qilishga harakat qiladi. Oyatga doir mavzular, bahslarni kengroq bayon qiladi. Bu qismga doir tafsirlar:

- Abu Abdulloh Muhammad ibn Umar ibn Husayn Faxriddin Roziyining "Mafotihul g'ayb"
- Muhammad ibn Jarir Tabariyning "Jomi'ul bayon fi tafsiril Qur'on"
- Abu Muhammad Husayn ibn Mas'ud ibn Muhammad Bag'aviyning "Ma'olimut tanzil"
- Imoduddin Ismoil ibn Kasirning "Tafsirul Qur'onil Aziyim"

Uchunchi qism: "At-Tafsir Al-muqorin" (solishtirish tafsiri) bu uslubda mufassir Qur'onagi biron suraning tafsirni bir necha tafsirdan o'rGANADI. So'ng har bir tafsirning manhaji va uslubuni solishtirib chiqadi. So'ng o'z xulosasini bayon qiladi.

To'rtinchi qism: "At-tafsir Al-mavzu'iy" (mavzuga doir tafsir qilish) bu tafsir turi muayyan mavzuga doir oyatlarni ajratib, aynan bir mavzudagi oyatlarni tafsir qilish tushuniladi. Bu tafsir turi hijriy o'nto'rtinchi asrda paydo bo'lgan.

REFERENCES:

1. Imom As-Suyuti. Al-Itqon. 2-juz, 174-b.- Qohira.: Dor Nahdat Misr,.2002.
2. Shayx Muhammad Ali Saloma. Manhajul-Furqon fi ulumil Qur'an.- Qohira.: Dor Nahdat Misr,.2002.

¹¹ Saloh Al-Xolidiy. At-tafsir bat-ta'vil fil Qur'an. -Iordaniya. "Darun nafais" 13-16 B.